

60-70-YILLAR O'ZBEK POZIYASIGA DAVR RUHIYATINING TA'SIRI

No'monova Ro'zaxon No'monjon qizi

NamMTI 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 60-70-yillar o'zbek she'riyatidagi o'ziga xos xususiyatlar ko'rib chiqilgan. O'zbek madaniyatini yorqinroq ifodalash uchun bu davr shoirlarining erkinlik va suverenitetga intilishlarini o'zida aks ettirgan umumiy mavzular, motivlar va adabiy vositalarni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, 60-yillar oxiri va 70-yillar boshidagi she'riyat qiyofasi, erk va hurfikrlik mavzulari;

XX asrning 60-80-yillari o'zbek she'riyatida mehnat va mehnatsevar inson haqida ko'p yozildi. Uyg'unning "Taqdir", "Buloq"; Zulfiyaning "Umr o'tmoqda", "Dalalarni kezganda gasht bor"; Asqad Muxtorning "Shundoq o'tgan umr armonsiz". "Gudok"; Mirmuhsinning "Qalb va qalam" kabi she'rlarida oddiy kishilarning bunyodkorona mehnati sharaflandi. Shu davrning mahsuli bo'lgan Oybekning "Ulug' yo'l", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanlarida xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishi tasvirlanadi.

Bu davrda dramaturgiya sohasida Izzat Sultonning "Imon", Erkin Vohidovning "Oltin devor", Said Ahmaning "Kelinlar qo'zg'oloni" pyesalari yozilib, xalq orasida tanilgan edi. 60-yillar shoirlar avlodining, ayniqsa, xalqimiz tarixiga bag'ishlangan, uning shijoat va qudratini vasf etgan, ona tilimizni va milliy urf-odatlarini kuylagan, Vatanimizning ulug' kechmishlarini obrazli ifodalagan asarlari ana shu nuqtayi nazardan beqiyosdir.

Ushbu bo'g'inga mansub shoirlar yaratgan va paydo bo'lgan zaxotiyok el-yurt og'ziga tushgan qator asarlar, ayni chog'da milliy ozodlik ruhini, xalqimizning erk va istiqloqga tinimsiz intilishlarini bevosita yoki bivosita ifodalani bilan muhim ahamiyatga molikdir.

Ana shu ruhdagi va yo'nalishdagi unlab she'rlar bilan birga va extimol ulardan ham ko'prok, oltmishinchi Fillarda yosh shoirlar ijodidagi uziga xoslikni, goyaviy-estetik yangilanishni ta'minlagan badiiy asarlar to'g'ridan-tugri shaxsga sig'inish kulfatlarining in'ikosiga bag'ishlangan badiiy namunalardir.

Zero yangi o'zbek lirikasining xususan ilk shakllanish chog'larida tabiiyki, uzoq o'tmish yoki umuman milliy tariximiz birvarakayiga emas, balki kechagi o'tmish va eng yaqin tariximiz, ya'ni ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitilgan tariximiz yangi lirik qahramon ma'naviy olamining turidan joy olganligiga hech qanday shak-shubxa yo'q. Umuman olganda, chorak asr muqaddam adabiyotimizda, xususan she'riyatda kechgan jiddiy sifat va moxiyat o'zgarishlari tasodifiy emas edi, albatta. Bu birinchi navbatda ilg'or va demokratik rus adabiyotida yorqin aks etadigan bir jarayon bo'lib, sobiq sovetlar mamlakatining barcha olis-yaqin markazlariga o'z ta'sirini ko'rsatmokda edi.

Bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, rus adabiyotidan farqli o'larok o'zbek adabiyotida qatag'on yillarining o'ziga xos vaximali kayfiyatini va xalqimiz ma'naviyatidagi aks-sadosini teran ifodalash vazifasi, asosan, endigina ijod maydoniga qadam qo'ygan yosh shoirlarimiz zimmasiga tushdi.

Xuddi ana shu narsa 60-yillar adabiyotimizda, xususan she'riyatimizda stalinizmga munosabat va shaxsga sig'inish illatlarining o'ziga xos poetik talqini ro'yobga chiqishida muxim, balki hal qiluvchi rol o'ynagan. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy ob-havo qanchalik murakkab bo'lmasin, turg'unlik zamonining shafqatsiz to'siqlariga qaramay adabiyotimizning o'sha paytdagi kenja avlodi, baribir, o'zi teran anglagan va ishongan haqiqatlarni sho'rolar zamonining g'ayriinsoniyligini va qalbakiligini aytishdan cho'chimadi. Ular o'z zamondoshlarini va kelayotgan nasllarni hushyorlikka chorladilar, eng muximi, milliy ongimizni uyg'otishga o'zlarida kuch topdilar. Bu yangi o'zbek lirikasining dastlabki va salmoqdor yutuqlaridan biri edi... Tabiiyki, biz oltmishinchi yillar shoirlar avlodining ijodiy izlanishlarida shaxsga sig'inish davrining barcha illatlari qamrab olinganini kuzatmaymiz. Biroq navqiron shoirlarimiz asarlarida yaqin o'tmishimizga munosabatdagi bir qancha xususiyatlar nafaqat o'sha vaqtdagi, balki bugungi kun nuqtai nazaridan ham e'tiborga loyiqdir.

Turg'unlik davri adabiyotimiz, xususan she'riyatimizning qator go'zal va mumtoz namunalari - Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni, Abdulla Oripovning "Ketganlar yodi bu...", "Armon", "Vaxima", "Tun", "Malomat toshlari", Rauf Parfining "Vatan", "Shoir qismati", "Bog'chasaroy chashmasi", "Turkiston yodi", "Oybek", "Usmon Nosir", "Telbalarcha qarayman..." singari davr xotirasidan mustahkam o'rin olgan qanchadan-qancha asarlarida o'z ifodasini topdi. Xalqimiz ma'naviyatidagi vahimali kayfiyatni teran ifodalash vazifasi, asosan, endigina ijod maydoniga qadam qo'ygan yosh shoirlarimiz zimmasiga tushdi.

Xullas, 60-yillar shoirlar avlodi ijodidagi yaqin o'tmish fojialari in'ikosiga bag'ishlangan poetik namunalar, ayniqsa, usha mualliflar dastlabki lirikasining ilk bor maxsus ilmiy tadqiqotga jalb qilinishi hozirgi badiiy tafakkurimizdagi muhim sifat o'zgarishlari tarixini, yangi poetik dunyoqarashi va kayfiyatning vujudga kelish jarayonini, yangi lirik qahramon ma'naviy olamining shakllanish bosqichlarini va eng asosiysi, umuman, hozirgi she'riyatimizda yangicha estetik mavqe hamda mezonning tarkib topishini izchil tekshirishga imkon beradi.

Mamlakat adabiyotidagi, ayniqsa, she'riyat sohasidagi tub va chuqur o'zgarishlar e'tiborsiz qolmadi, albatta. Harakatdagi estetika va adabiyotshunoslikning butunittifoq miqyosidagi B.Томашев-ский, Ал.Михайлов, В.Огнев, З.Паперный, В.Гусев, А.Урбан, В.Де-ментьев, А.Михайлов, А.Аннинский, Д.Урнов, В.Кожин, А.Эльяневич, А.Латынина, В.Анисимов, V. Zaysev, Т.Глушкова, Г.Белая va boshqalariday taniqli vakillari yangi avlodning poetik izlanish va topilmalari xususida turli yo'nalishdagi tadqiqotlar, monografiya va maqolalar yaratdilar. Yangi o'zbek she'riyatining iste'dodli vakillari dastlabki qadamlaridanoq el-yurtning, adabiy jamoatchilikning nazariga tupganini alohida ta'kidlash zarur.

Yon shoirlarimizning yorqin va samimiy uslubda bitilgan asarlari bilan tanishganlarning aksariyati adabiyotimizga butunlay boshqacha sevadigan, o'zgacha dunyoqarashga ega qalamkashlar tashrif buyurganini payqadilar. Oltmishinchi yillar shoirlar avlodi ijodining ilmiy-tanqidiy o'rganilishi esa ular bilan bir paytda yoki sal oldinroq adabiyot maydoniga kirib kelgan taniqli munaqqid va adabiyotshunoslarimiz O. Sharofiddinov, M.Кушжонов, С.Мамажонов, Н.Каримов, У.Норматов, И.Фафуров,

Н.Худойбергенов, Б.Акрамов, Н.Шукуров, Б.Косимов, Б.Назаров, Н.Раҳимжонов, Ж.Камол, О.Абдуллаев, М.Сафаров, Б.Нор-бойев, М.Махмудов, И.Ҳаққулов, К. Jumabovvalarning faoliyati bilan uzviy aloqadordir. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, adabiy tanqidimizda ya'ni o'zbek lirikasiga munosabat bir tekis fakat ijobiy bo'lib qolgan emas. Xususan, Abdulla Oripov va Rauf Parfining she'riy tajribalarini g'oyasizlikda, hayotiy emaslikda ayblashardi. Turg'unlik davri adabiy tanqidida yangi kayfiyatdagi va o'ziga xos estetik dunyoqarashiga ega ijodkorlarga hamda ularning 70-80-yillarda she'riyatimizga kelib qo'shilgan izdoshlariga yondashuvdagi ziddiyatlilik, aniqrog'i ikki yillik uzoq vaqt davom etib, jumhuriyatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina uzil-kesil barham topdi.

Yangi uzbek lirikasining nozik bilimdoni Ibrohim G'afurovning quyidagi fikrlari ham yuqoridagi mulohazalar bilan ohangdoshligi va deyarli bir vaqtda aytilganligi inobatga olinsa, naqadar muhim estetik qiymatga ega ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi: "Men hozirgi yoshlar poeziyasi ulug'likka bir debocha bo'lib tanilishini xohlardim... Bunga qanchayiki asos kerak bo'lsa, bari yetarli darajada topiladi. Hozirda hali kitobi chiqib ulgurmagani, ammo og'izga tushib o'qtin-o'qtin mexr bilan tilga olib qo'yilayotgan yoshlarning nomlarini sanasak, cho'ziq ro'yxat bo'ladi.

Bu ro'yhat boshida turuvchi shoirlardan biri Rauf Parfining kaftday ixcham, mehrlil, oqil she'rlari ichki alanga bilan yonadi. Shu alanganing potensial kuchi ro'yobga chiqishidan hammamiz umidvormiz. Bunday potensial kuchni Jamol Kamol, P.Отаев, Gulchexra Nurullayeva, Muhammad Ali, Omon Matjon, Cho'lpon Ergash, Xalima Xudoyberdiyeva singari yosh shoirlarning va shoiralarning she'rlarida ko'ramizki, bu Erkin Vohidov, Husniddin Sharipov, Abdulla Oripov kabi shoirlar bilan izma-iz she'riyatga chinakam shoirona tuyg'u va yangi shoirona obraz egalari kirib kelayotganidan darak beradi. 60-yillarning ilg'or adabiy tanqidi umuman o'sha yillarda adabiyotimizda sodir bo'layotgan qudratli yuksalishning sotsial-siyosiy sabablarini ham haqqoniy izohlaydi.

Ayniqsa, lirikada shoir shaxsiyatining nechog'lik ahamiyat kasb etgani hammaga ma'lum.

Zero, lirik asarning estetik qiymati birinchi galda unda ifodalangan ijodkor shaxsiyatining originalligi, yorqinligi, lirik "men" munosabati, sezgi va taassurotlarining qay darajada o'ziga xosligi, betakrorligi bilan belgilanadi.

Shaxsga sig'inish esa shunchaki bitta shaxsning ideallashtirilganigina emas.

Hamda ayni paytda muhitda, jamiyatda umuman shaxsiyatning inqirozi, "men" tushunchasining yemirilishi demakdir. Ijtimoiy hayotdagi shunday dahshatli maraz tafakkur əlamida, jumladan badiiy ijodda shaxssizlik, qiyofasizlik, munosabatsizlik turdiradi.

Shu tariqa lirika uchun havo va suvday zarur bo'lgan aniq, muayyan "men" o'rnini o'sha yillarda o'ta umumiy, abstrakt "biz egallagandi.

Bu esa aslida estetik reallik sifatida umuman lirikaning, ayniqsa, lirik kechinma va o'ziga xos poetik-individual taassurotning barham topishi, badiiy tafakkurdan zo'ravonlik puli bilan sikib chiqarilishi demak edi. (Bu o'rinda, ayniqsa, Ulug' Vatan urushi davri

lirikasining ayrim ajoyib namunalari mustasno ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir). Poeziyada quruq tantanabozlik va dabdaba, hissiz ritorika avj oldi.

Poeziya inson qalbining badiiy ifodasi bo'lishi kerak bo'lgani holda, oddiy haqiqatlarni qofiyalab isbotlash extirossiz mushohada yuritish vositasiga aylanib keldi.

Chuqur fikrlar, o'tkir umumlashmalar, chinakam his va tuyg'ular she'rlarda kam uchrardi.

Hayot haqida jiddiy o'ylashga o'rgatmaydigan, inson qalbining hamma boyliklarini ifodalamaydigan yaltiroq, vazmin, sovuq va tussiz poeziya quloch yoza boshlagan edi". Shoirlar voqelikni murakkabligi, kontrastlari bilan ko'rsatish, inson kechinmasini, psixologiyasini, ruxiy kolliziyasini ochish jarayonida zamona moxiyatini, hayot qadamini va kelajak sharpasini ifodalashga erishmoqdalar". Tanikli munaqqid ushbu mulohazalarini davom ettirib, quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Voqelikni barcha kontrastlari bilan aks ettirishda, umuminsoniy motivlarni konkret yoritib berishda, inson qalbiga chuqur kirib borish va insonning o'z-o'zini tanishiga ko'mak berishda, intim mavzularni yuksak grajdanlik pozitsiyasida turib talqin qilishda, poetik madaniyatni oshirish va so'z ustida ishlashda yoshlarimiz o'z ustozlariga sodiq qolishmoqda va olg'a tomon dadil qadam bosmoqdalar".

Xulosa o'rnida aytganda, 60-yillardan e'tiboran o'zbek poeziyasida lirik qahramonni voqelikka munosabatida, ijtimoiy qarashlarida tub o'zgarishlar ro'y beradi. Lekin she'riyatimiz shaxsga sig'inish davrida badiiy ijodda tomir otgan norealistik in'ikos usulidan voz kechishi, konfliktsizlik "nazariyasi" asoratlaridan qutulishi osonlikcha kechmadi, albatta. Lirikamizda yangicha in'ikos usuli va estetik prinsiplarning shakllanishi qiyin va mashaqqatli bir ijodiy jarayon edi. Zero, haqiqatdan yuz o'girish qanchalik oson bo'lsa, uni tan olish, e'tirof etish shunchalik og'ir va azoblidir. Bu jarayon gunohlarga iqror bo'lish va tavba-tazarru' jarayoni adabiyotda yanada murakkabroq kechadi.

Xullas, o'zbek she'riyatida poetik fikrning yangilanish jarayonini kuzatish, ayniqsa, elliginchi yillar oxiri va oltmishinchi yillarning boshlaridagi axloqiy-estetik izlanishlar mohiyatini tushunish nuqtai nazaridan bitilgan she'rlar diqqatni tortadi.